



BUGUNGI KUNDA YOSH AVLODNI MA'NAVIY SALOHİYATINI
OSHIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RNI

Chirchiq davlat pedagogikas universiteti

2-bosqich talabasi

Userbayeva Feruza Inoyat qizi

feruzauserbayeva@gmail.com +99894.611-16-05

Ilmiy rahbar: Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolamizda Alisher Navoiyning hayotiy faoliyati haqidagi fikrlarimiz o'rin olgandir. Hamda Alisher Navoiyning ijodiy faoliyat hususidagi fikrlarga ham to'xtalib o'tilishiga harakat qildik. Alisher Navoiyning asarlarini bugungi kundagi talqini hususidagi o'z fikr va mulohazalarimizni ushbu maqolamizda bayon ettik.

Kalit so'zlar: Uyg'ur, asar, maktab, faylasuf, Xamsa, Hirot, bahodir, Temuriylar.

**РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВО В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОЙ
СИЛЫ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ СЕГОДНЯ**

Аннотация: В данной статье изложены наши мысли о жизненной деятельности Алишера Навои. Мы также постарались остановиться на мыслях Алишера Навои о творческой деятельности. В этой статье мы высказали свои мысли и мнения относительно современной интерпретации произведений Алишера Навои.

Ключевые слова: уйгур, труд, школа, философ, Хамса, Герат, оценка, Тимуриды.

**THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S WORKS IN INCREASING THE SPIRITUAL
POWER OF THE YOUNG GENERATION TODAY**

Abstract: This article contains our thoughts about Alisher Navoi's life activity. We also tried to dwell on Alisher Navoi's thoughts on creative activity. In this article, we have expressed our thoughts and opinions regarding the interpretation of Alisher Navoi's works today.

Key words: Uighur, work, school, philosopher, Khamsa, Herat, assessment, Timurids

Hirotda tug'ilgan Alisher Navoiy uyg'ur qabilasidandir. Otasi Kichkina bahodir nomini olgan, Temurning nevaralari xizmatida ishlagan, keyingi yillarda Boburshoh saroyida ham muhim lavozimlarda faoliyat yuritgan. Temur xoni Shohruh vafotidan keyin Hirotni tark etishga majbur bo'ldi va Alisher Navoiy bolaligining bir qismini Iroqda o'tkazdi. 1452-yilda Xurosonga qaytib keladi. Ilm oldi. Navoiy olgan bilim uning ijodi va keyingi davrda davlat arbobi sifatida paydo bo'lishiga asos bo'ldi [1].

Navoiyning lirika sohasidagi Sharqning o'ziga xos san'at olamini tashkil qilgan mahorat maktabiga aylandi va katta kashfiyotlarga yo'l ochib berdi. Shoir bu sohada "o'ziga

hos novatorlik yarata olmaydigan uning asarlari bu qadar ulug' ahamiyat kasb eta bilmas edi" [2]. Darhaqiqat, ulug' shoirning g'azal va muxammaslari, ruboiy, qit'a hamda soqiynomalarida "Faylasuf shoirning o'ziga xos shaxsiyati va mushohada quvvati, ijtimoiy pozitsiyasi hamda poetik qudrati nazarga tashlanib turadi" [3]. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'gli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotida tug'ildi. Zamondoshlari uning haqida ko'pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. 'Nizomiddin'-din-diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalari beriladigan sifat, „mir“ amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni G'iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan birga ulg'aygan (ko'kaldosh) bo'lgan ekan. Buyuk shoir o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu tabarruk zot to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni esa uning zamondoshlari o'z kitoblarida beradilar. Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushdi. Olim-u fozillar davrasida bo'ldi. Uch-to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so'ng uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi. Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Atrofidagilar uning bu ishiga rag'bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni „Badoye ul-bidoya“ („Badiiylik ibtidosi“)ni 1472–1476-yillarda shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. 1485–1486-yillarda ikkinchi devon - „Navodir un-nihoya“ („Nihoyasiz nodirliklar“) maydonga keldi. Alisher Navoiy 1481–1482-yillarda „Vaqfiya“ asarini yozadi [4]. Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan „Xazoyin ul-maoniy“ devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga „G'aroyib us-sig'ar“ („Bolalik g'aroyibotlari“), ikkinchi qismiga „Navodir ush-shabob“ (Yigitlik nodirotlari), uchinchi qismiga „Badoye' ul-vasat“ (O'rta yosh badialari) va nihoyat, to'rtinchi qismiga „Favoyid ul-kibar“ (Keksalik foydalari) degan nomlar berildi.

„Xazoyin ul-maoniy“ inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r va o'nlaricha she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidagina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she'rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo'lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog'langan. Alisher Navoiy „Xazoyin ul-maoniy“ga qadar 'Ilk devon', „Badoye' ul-bidoya“, „Navodir un-nihoya“ devonlarini tuzgan. „Xazoyin ul-maoniy“ ana shu 3 devonga kirgan hamda „Navodir un-nihoya“ tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan. „Xazoyin ul-maoniy“dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas,

4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo'lib, Sharq she'riyatining 16 turi namoyondir.

1472-1476-yillarda birinchi devoni "Badoye' ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi") devonini shoh amri va istagi bilan o'zi kitob qiladi. Mazkur devon 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje'band, 2 musaddasdan tarkib topgan. Alisher Navoiy butun ijodi davomida turli janr va yo'nalishlarda salmoqli ijod qilgan. Nasrda ham, nazmda ham yetuk asarlar yaratgan. Nasrda Navoiy asosan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va ilmiy-falsafiy, iqtisodiy yo'nalishlarda qalam tebratgan [5]. Navoiy ijodi nafaqat O'zbekistonda, balki Yevropa, okeanorti mamlakatlarida ham yuksak qiziqish bilan o'rganiladi. Shu sabab, adabiyotshunoslik fanidan mustaqil "Navoiyshunoslik" fani vujudga keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy ijodi u yashab o'tgan davridayoq mukammal o'rganila boshlagan va hamon o'rganilmoqda. Uning ijodi va hayotiga bag'ishlab butun dunyoda minglab ilmiy ishlar, maqolalar, traktatlar, asarlar, filmlar, spektakllar, badiiy asarlar yaratilgan. Jumladan, o'zbek adabiyotida yozuvchi Oybekning "Navoiy" romani, (bu roman bilan Oybek o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar haqida badiiy asar yaratish an'anasiga asos soladi) Mirkarim Osimning turkum hikoyalari mashhur. Yevropada Navoiy asarlariga qiziqish katta. Bu borada ko'plab sharqshunos olimlarning ishlari misol bo'la oladi. Chunki, uning asarlari shunchaki badiiy xayolot mahsuli bo'lib qolmasdan, sharq xalqlari tarixi va falsafasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega [6].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

Sharq adabiyoti deganda hayolimizga birinchi keladigan shaxs shubhasiz Alisher Navoiy hazratlaridir. Ul zotning adabiy merosi necha asrlar o'tsada, avlodlar qalbini va yo'lini ilm yog'dusi bilan yoritishda davom etmoqda. Insoniyat tarixida bundayin aql zakovat egalari kam bo'lib, jahon miqiyosida tan olinganlari ham sanoqlidir. O'z davrining eng ilg'or ilmlari egasi bo'lmish Alisher Navoiy o'zlaridan nihoyatda bebaho meros qoldirganlarki, hali hanuz izlanuvchilar mazkur merosni o'rganib tadqiq etmoqdalar. Ilmiy tadqiqotlar davomida har bir tadqiqotchi o'zi uchun nimadir kashf etishi shubhasizdir. Birinchi Prezidentimiz Alisher Navoiy haqida fikr bildirar ekanlar shunday yozadilar: "Agar ul zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir [7].

Yurtimizda har bir ulug' ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida jadal ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining badiiy ijod sohasidagi eng oliy mukofoti "Alisher Navoiy" nomidagi davlat mukofotidir. Shoirning ijodini o'rganish Rossiya, Fransiya va Yevropada keng yoyilgan. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar

to'plami tarjimasini nashr etila boshlandi. Bir viloyat, shahar, oily o'quv yurti, Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, Adabiyot muzeyi, San'at saroyi, Toshkentdagi akademik opera va balet teatri, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalarga Alisher Navoiy nomi berilgan. Rassom, haykaltarosh va bastakorlar uning hayoti va ijodiga bag'ishlab asarlar yaratishgan. Xalqaro maydonda ham shoirning ijodi qiziqib o'rganiladi. Shanxay, Tokio, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Belarussiya va Rossiya davlatlarida unga atab haykallar o'rnatilgani ham buning yorqin misolidir.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlar orasida Alisher Navoiy shaxsining e'tirof jarayoniga alohida e'tibor qaratishimiz lozimdir. Albattaki yoshlarimizni ma'naviy salohatini oshirishda Alisher Navoiy bobomizning bizga qoldirgan me'rosi bebaho boylikdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 "Günay Kut, Ali Şir Nevai", Islam Ansiklopedini, C.2, 1989, 449.
2. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2 том. Т., Фан, 1977.- Б.109
3. Четиндог Ю. Алишер Навоий (А.Хайит таржимаси). Тошкент: "Мухаррир", 2013. Б.: 32
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy
5. <https://oz.sputniknews.uz/20190208/alisher-navoiy-hayoti-va-ijod-yoli-22240204.html>
6. <https://oz.sputniknews.uz/20190208/alisher-navoiy-hayoti-va-ijod-yoli-22240204.html>
7. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat-2010-yil. 47-bet.